



UDK: 81'27:811.111+811.512.133

*Nilufarxon ISMOILJONOVA,*

*Ishoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi*

*ADPI v.b proffessori, f.f.d D.Karimova taqrizi asosida*

### KINOYA (IRONIYA, SARKAZM) NING INGLIZ VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI PRAGMATIK TABIATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tilshunosligida kinoya (ironiya) hamda sarkazmning pragmatik tabiati qiyosiy aspektida tadqiq etilgan. Tadqiqotda kinoyaning yashirin implikatura, pragmatik ma'no, kommunikativ strategiya va kontekstual interpretatsiya bilan bog'liq jihatlari jahon hamda o'zbek tilshunoslarining nazariy qarashlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari pragmalingvistika, lingvokulturologiya, diskurs tahlili, kognitiv lingvistika hamda qiyosiy tilshunoslik rivojiga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kinoya, ironiya, sarkazm, pragmatika, pragmalingvistika, implikatura, lingvokulturologiya, diskurs tahlili, kognitiv lingvistika, kommunikativ strategiya, yashirin ma'no, internet diskursi, multimodal kommunikatsiya, verbal humor, ingliz tili, o'zbek tili, qiyosiy tilshunoslik, kommunikativ kompetensiya, milliy-madaniy kod.

### THE PRAGMATIC NATURE OF IRONY AND SARCASM IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTICS

Annotation

This article comparatively investigates the pragmatic nature of irony and sarcasm in English and Uzbek linguistics. The study analyzes the aspects of irony related to hidden implicature, pragmatic meaning, communicative strategy, and contextual interpretation based on the theoretical views of world and Uzbek linguists. The research findings contribute to the development of pragmalinguistics, linguoculturology, discourse analysis, cognitive linguistics, and comparative linguistics.

**Keywords:** irony, sarcasm, pragmatics, pragmalinguistics, implicature, linguoculturology, discourse analysis, cognitive linguistics, communicative strategy, implicit meaning, internet discourse, multimodal communication, verbal humor, English language, Uzbek language, comparative linguistics, communicative competence, national-cultural code.

### ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ИРОНИИ И САРКАЗМА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В данной статье в сравнительном аспекте исследуется прагматическая природа иронии и сарказма в английском и узбекском языкознании. В исследовании анализируются аспекты иронии, связанные со скрытой импликацией, прагматическим значением, коммуникативной стратегией и контекстуальной интерпретацией, на основе теоретических взглядов зарубежных и узбекских ученых. Результаты исследования способствуют развитию прагмалингвистики, лингвокультурологии, дискурс-анализа, когнитивной лингвистики и сравнительного языкознания.

**Ключевые слова:** ирония, сарказм, прагматика, прагмалингвистика, импликация, лингвокультурология, дискурс-анализ, когнитивная лингвистика, коммуникативная стратегия, скрытое значение, интернет-дискурс, мультимодальная коммуникация, вербальный юмор, английский язык, узбекский язык, сравнительное языкознание, коммуникативная компетенция, национально-культурный код.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda yumor va kinoya lingvokulturologiya, pragmalingvistika, kognitiv lingvistika hamda diskurs tahlilining muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida o'rganilmoqda. Humor inson tafakkuri, milliy mentalitet va kommunikativ madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir xalqning dunyoni idrok etish modeli hamda emotsional baholash tizimini aks ettiradi. Shu sababli o'zbek va ingliz tillaridagi humoristik birliklarni qiyosiy-lingvokulturologik aspektida tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Lingvokulturologik yondashuvga ko'ra, til faqat kommunikativ vosita emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlar va milliy tafakkurini aks ettiruvchi mental tizim hamdir. Humor esa mazkur tizimning emotsional-pragmatik qatlamini tashkil etadi. Shu sababli turli xalqlarning kulgi modeli ularning milliy xarakteri va kommunikativ etik me'yorlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi.

Ingliz kommunikativ madaniyatida humor ko'proq individualistik tafakkur, yashirin irony, understatement va self-irony bilan bog'liq holda namoyon bo'lsa, o'zbek kommunikativ madaniyatida xalqona obrazlilik, yumshoq

kinoya va kollektiv pragmatik tafakkur ustunlik qiladi. Mazkur farqlar milliy mentalitet va lingvomadaniy stereotiplarning humoristik kommunikatsiyaga ta'sirini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillarida humorning milliy-madaniy va mental xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish, kulgi modelining lingvokulturologik asoslarini aniqlash hamda milliy xarakter va kommunikativ strategiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishdan iborat.

#### Mavzuga oid ilmiy qarashlar va olimlar sharhi.

Humor fenomeni qadimdan falsafa, estetika va ritorika doirasida o'rganilgan bo'lsa, XX asrdan boshlab lingvistikaning mustaqil tadqiqot obyektiga aylandi. Antik davr mutafakkiri Aristotel kulgini insonning estetik va ijtimoiy xususiyati sifatida talqin qilib, kulgining asosida nomuvofiqlik va kutilmaganlik yotishini ta'kidlagan. Nemis faylasufi I.Kant humor mohiyatini "kutilayotgan mantiqiy natijaning birdaniga yo'qolishi" bilan izohlaydi. Uning fikricha, kulgi tafakkurdagi semantik nomuvofiqlik mahsulidir. A.Shopengauer esa humorning obyektiv reallik bilan inson tafakkuri o'rtasidagi nomutanosiblik asosida tushuntiradi.

A.Bergson "Kulgi" ("Le Rire") asarida humorni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilib, kulgi insonning jamiyatdagi mexanik xatti-harakatlariga nisbatan yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, humor ijtimoiy nazorat va kommunikativ muvozanatni saqlash vositasi ham hisoblanadi. Pragmalingvistika doirasida P.Grice humoristik ma'no ko'pincha kooperativ tamoyillarning buzilishi natijasida yuzaga kelishini ko'rsatadi. Olimning kommunikativ implikatura nazariyasiga ko'ra, adresat literal ma'no bilan haqiqiy pragmatik ma'no o'rtasidagi tafovutni kontekst asosida anglaydi. [5:]

Masalan: "Great weather!" jumlasini kuchli yomg'ir paytida qo'llansa, ironik ma'noni ifodalaydi. Bu yerda yashirin implikatura humoristik effektini yuzaga keltiradi.

J.Searle ironiyani bilvosita nutq akti sifatida talqin qilib, unda haqiqiy ma'no yashirin kommunikativ niyat orqali yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv humor interpretatsiyasida kontekst va fon bilimlarining muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. [6]

D.Sperber va D.Wilson relevance theory doirasida humoristik birliklarning interpretatsiyasi pragmatik inferensiya orqali amalga oshirishini asoslaydi. Ularning fikricha, humorni tushunish uchun adresat kommunikativ vaziyat va madaniy fonni anglay olishi kerak. Kognitiv lingvistika vakillari V.Raskin va S.Attardo humoristik effektini semantik ssenariylarning qarama-qarshiligi bilan bog'laydi. V.Raskinning "Semantic Script Theory of Humor" nazariyasiga ko'ra, humor ikki qarama-qarshi semantik ssenariyning kesishuvi asosida yuzaga keladi. [3, 6:]

Masalan: "I used to be a banker but I lost interest." Mazkur birlikda "interest" so'zining ikki xil ma'noda qo'llanishi semantik wordplay hosil qilmoqda. S.Attardo verbal humorni pragmatik, semantik va diskursiv parametrlar asosida kompleks tadqiq etib, "General Theory of Verbal Humor" modelini yaratdi. Olimning fikricha, humoristik birliklarni lingvistik mexanizmlar, kommunikativ vaziyat va milliy-madaniy kontekst bilan bog'liq holda o'rganish zarur. Lingvokulturologiya doirasida V.A.Maslova humorni milliy mentalitet va madaniy tafakkur bilan bog'liq lingvomadaniy hodisa sifatida talqin qiladi. V.N.Teliya esa frazeologik va humoristik birliklarda xalqning madaniy xotirasini hamda emosional baholash modeli mujassam ekanligini ta'kidlaydi. [3]

Yu.M.Lotman humorni semiotik tizim va madaniy kodning tarkibiy qismi sifatida baholab, unda xalqning ijtimoiy stereotiplari va dunyoqarashi aks etishini ko'rsatadi. O'zbek tilshunosligida humor va kinoya masalalari asosan uslubshunoslik, pragmalingvistika va lingvokulturologiya doirasida o'rganilgan. Sh.Rahmatullayev frazeologik birliklarda xalqning obrazli tafakkuri va kulgi madaniyati mujassam ekanligini qayd etadi. [10:]

Masalan: "Burnidan ip o'tkazib bo'lmaydi."

Mazkur birlik xalqona metafora va yumshoq kinoyaviy baholashni ifodalaydi.

N.Mahmudov esa o'zbek kommunikativ madaniyatida humor insoniy yaqinlik va kommunikativ muvozanatni saqlash vositasi ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, o'zbek humorida ochiq tanqiddan ko'ra yumshoq kinoya va pragmatik ehtiyotkorlik ustunlik qiladi. [11]

D.Xudoyberganova lingvokulturologik birliklarda milliy mentalitet va madaniy semantika faol aks etishini ko'rsatib, humoristik birliklarni milliy tafakkur bilan bog'liq holda o'rganadi. [12]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda qiyosiy-lingvokulturologik, pragmalingvistik, kognitiv hamda diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi humoristik birliklar, frazeologik

iboralar, metaforik konstruksiyalar, internet diskursidagi memlar va virtual kinoya birliklari tanlab olindi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodologik tamoyillar asos qilib olindi:

Qiyosiy tahlil metodi – ingliz va o'zbek humor modellari o'rtasidagi lingvokulturologik va pragmatik farqlarni aniqlash uchun qo'llanildi.

Diskursiv tahlil – humoristik birliklarning kommunikativ vaziyat va kontekst bilan bog'liq interpretatsiyasini aniqlashda foydalanildi.

Pragmalingvistik tahlil – yashirin implikatura, kinoyaviy baholash va kommunikativ strategiyalarni tadqiq qilish uchun qo'llanildi.

Kognitiv tahlil – metafora, semantik nomuvofiqlik va wordplay mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi.

Statistik tahlil – humor yaratishda qo'llaniladigan lingvistik vositalarning faollik darajasini aniqlash maqsadida amalga oshirildi.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek badiiy adabiyoti, xalq og'zaki ijodi, internet memlari, dialogik nutq va zamonaviy virtual kommunikatsiya namunalari tanlab olindi.

**Tahlil va natijalar.** Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek humor modellari milliy xarakter va mental tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Ingliz humorida individualistik tafakkur, self-irony va understatement faol qo'llaniladi.

Masalan: "I'm not lazy. I'm on energy-saving mode."

Mazkur birlik self-irony va texnologik metafora asosida shakllangan bo'lib, ingliz mentalitetidagi individualistik kulgi modelini aks ettiradi.

O'zbek humorida esa kollektiv tafakkur va xalqona obrazlilik ustunlik qiladi.

Masalan: "Ish qilsa ham gap, qilmasa ham gap."

Mazkur birlik o'zbek xalqining ijtimoiy hayotga nisbatan kinoyaviy munosabatini ifodalaydi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, ingliz tilidagi humoristik birliklarda irony va wordplay 58% ni tashkil qilgan bo'lsa, o'zbek tilida frazeologik obrazlilik va yumshoq kinoya 61% ni tashkil etdi. Internet diskursida ingliz humorida meme-based irony va sarcasm faol qo'llanilishi kuzatilgan bo'lsa, o'zbek virtual kommunikatsiyasida xalqona metaforalar va pragmatik kinoyaviy birliklar ustunligi aniqlandi.

Ilmiy yangiligi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

ingliz va o'zbek humor modellari lingvokulturologik va mental jihatdan kompleks qiyosiy tahlil qilindi;

humorning milliy xarakter va kommunikativ madaniyat bilan bog'liqligi ilmiy asoslandi;

ingliz va o'zbek tillarida irony, wordplay va frazeologik humorning lingvistik mexanizmlari qiyosiy tadqiq etildi;

internet diskursidagi multimodal humor va virtual kinoyaning lingvokulturologik xususiyatlari ochib berildi;

o'zbek tilshunosligida hali yetarli o'rganilmagan virtual humor, meme kommunikatsiyasi va raqamli kinoyaning pragmatik jihatlari tadqiq qilindi;

milliy mentalitet va kulgi modeli o'rtasidagi bog'liqlik lingvistik nuqtai nazardan izohlandi.

Ingliz kommunikativ madaniyatida irony va sarcasm ko'proq individualistik tafakkur, understatement va intellectual humor bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi aniqlandi. O'zbek kommunikativ madaniyatida esa yumshoq kinoya, pragmatik ehtiyotkorlik va xalqona baholash ustunlik qilishi kuzatildi. Shu sababli o'zbek tilidagi kinoyaviy birliklar ko'proq insoniy yaqinlik va kommunikativ muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda ingliz va o'zbek tillaridagi kinoya hamda sarkazm lingvokulturologik, pragmatik va diskursiv jihatdan kompleks

qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida hali yetarli darajada o'rganilmagan virtual kinoya va internet sarkazmining kommunikativ xususiyatlari yoritildi.

Umuman olganda, kinoya va sarkazm tilning nafaqat emotsional-ekspressiv qatlami, balki milliy tafakkur, kommunikativ madaniyat va pragmatik strategiyalarni aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy hodisa ekanligi asoslandi. Mazkur tadqiqot natijalari pragmalingsvistika, lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik va diskurs tahlili rivojiga muayyan ilmiy hissa qo'shadi.

**Xulosa.** Tahlillar shuni ko'rsatdiki, humor ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida milliy xarakter, mental tafakkur va kommunikativ strategiyalarni aks ettiruvchi murakkab

lingvomadaniy hodisa hisoblanadi. Ingliz humorida individualistik tafakkur, yashirin irony, understatement va intellectual humor ustunlik qilsa, o'zbek humorida kollektivlik, xalqona obrazlilik va yumshoq pragmatik baholash muhim o'rin egallaydi.

Har ikki xalqning kulgi modeli ularning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari va kommunikativ etik me'yorlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Internet kommunikatsiyasida humorning yangi multimodal shakllari yuzaga kelayotgani va ular milliy-madaniy tafakkur bilan bog'liq holda rivojlanayotgani kuzatildi. Mazkur tadqiqot natijalari lingvokulturologiya, pragmalingsvistika, diskurs tahlili va qiyosiy tilshunoslik rivojiga muayyan ilmiy hissa qo'shadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва, 2001.
2. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград, 2002.
3. Attardo S. Linguistic Theories of Humor. – Berlin, 1994.
4. Raskin V. Semantic Mechanisms of Humor. – Dordrecht, 1985.
5. Grice P. Logic and Conversation. – New York, 1975.
6. Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and Cognition. – Oxford, 1986.
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago, 1980.
8. Телия В.Н. Русская фразеология. – Москва, 1996.
9. Лотман Ю.М. Семиосфера. – Санкт-Петербург, 2000.
10. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, 1978.
11. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent, 2012.
12. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent, 2013.